

ISAJON SULTON ROMANLARIDA INSON XRONOTOP SIFATIDA

Abdulxamidova Xikmatoy Axrojon qizi

Fargʻona davlat universtiteti adabiyotshunoslik kafedrasida oʻqituvchisi

xikmatoy96@pf.fdu.uz

Tel: +998908489600

Annotatsiya: *Maqola borliqni anglash, dunyoni sohalar va fan tarmoqlari asosida tafakkur qilish inson tafakkuri asosida shakllanganligi sababli xronotopshunoslikga "inson xronotop" iborasi kirib keldi. Badiiy asar yaralishida bu muallif va qahramon xronotopi shaklida namoyon boʻlishi xususidagi qarashlar asoslangan.*

Kalit soʻzlar: *Muallif "men"i, qahramon "men"i, ijodkor ongi, xronotop, biografik tahlil, ruhiy psixologizm, muallif biosferasi, portret, peyzaj.*

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ХРОНОТОП В РОМАНАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА

Аннотация. *Термин «хронотоп человека» вошел в хронотопологию потому, что на основе человеческого мышления формируется понимание существования, мышление мира, основанное на областях и отраслях науки. Создание художественного произведения основано на том представлении, что оно проявляется в форме хронотопа автора и героя.*

Ключевые слова: *«Я» автора, «Я» героя, разум творца, хронотоп, биографический анализ, духовный психологизм, биосфера автора, портрет, пейзаж.*

HUMAN CHRONOTOPE IN THE NOVELS OF ISAJON SULTAN.

Annotatsion. *The term "human chronotope" entered the chronotopology because the understanding of existence, the thinking of the world based on fields and branches of science is formed on the basis of human thinking. The creation of a work of art is based on the view that it is manifested in the form of the chronotope of the author and the hero.*

Key words: *"I" of the author, "I" of the hero, mind of the creator, chronotope, biographical analysis, spiritual psychologism, biosphere of the author, portrait, landscape.*



Adabiyot inson ongining amaliy faoliyati jarayonida ruhiy, hissiy va aqliy obrazlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, ijodkor ichki “men”i borliqni anglashi natijasida hosil bo‘lgan tajribalardan zaruriy xulosalar chiqaradi. Germenevtika falsafasi esa buni o‘zida namoyon qiladi. “Boqiy darbadar” romani qahramoni taqdirida, dastlab, ongsizlik ancha ustun mavqeda namoyon bo‘ladiki, bu ongsizlik dinamikasiga to‘la muvofiq tarzda asar syujet linyalari shakllanishiga xizmat qiladi. Dabdurustdan u o‘z faoliyatining kuzatuvchisini anglay olmaydi. Obrazning vaziyatni anglashi mushkul kechadi, u idrokining siqilib qolishi tufayli bo‘ladi. Tarixiy-falsafiy ifoda orqali germenevtika insonni fenomen sifatida o‘rganib, uning borlig‘ini va borliqni anglash tafakkurini interpretatsiya¹⁸ qilish imkonini beradi. Inson adabiyotdagi ustuvor obrazdir, uning mavjudligi ta‘sirida bugungi o‘zbek adabiyotida islom madaniyati falsafasini aks ettiruvchi, diniy tushunchalar va qismatlar orqali o‘zlikni anglashga yetaklovchi romanlar maydonga kelmoqda. Xayriddin Sultonning “Ko‘ngil ozodadir”, X.Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari buning isbotidir. Ulardagi milliy an‘analarning aks etishi, shuningdek, yangilanishi, ramziy majoziy timsollar vositasida yaratilgan qahramonlarning adabiyot maydoniga kirib kelishiga zamin hozirlaydi. Buni hozirgi adabiy jarayonda milliylik qobig‘ini yorib chiqib, global mavzularga tomon rivojlanish sifatida baholash mumkin. Bunday milliy o‘zlikni yo‘qotmasdan, sharqona falsafadan chekinmay g‘arb liberalizimiga erishishini romannavislikdagi “o‘zbek modeli”ni yaratishga urinish, deyish mumkin. Ushbu modelni yaratishda ijodkor biosferasi va ichki meni ta‘sirida yaratilgan badiiy asarlar muhim sanaladi.

Bugungi kunda tafakkur tarzi va e‘tiqodida inson tanasidagi ruhning istak va fikr tashuvchi ong – Yaratganning ilohiy qudrati ekanligiga ishonch, insonni biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi sifatida anglash, ongning shakllanishiga kosmik hodisa sifatida qarashlar mavjud. Jamiyat, inson va insoniyat shakllanishi jarayonida to‘plangan tafakkur mahsullari muhim ma‘naviy qadriyatlar sirasiga kiradi. Ijodkor oddiy bir inson o‘laroq, o‘z umri davomida son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi. Umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga, o‘zi yashayotgan jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni milliy darajada namoyon etishga astoydil harakat qiladi. Buni adabiyotda aks etishi xususida M.M.Baxtin “Syujet voqealari, romandagi makon va zamon tushunchalarini tadqiq qilganda obrazlar tizimiga e‘tibor berish lozim. Makon va zamon o‘z holicha, qahramonlarsiz hech qanday ma‘noga ega bo‘lmaydi. Asar markazida bosh qahramon turadi. Demak, “har

¹⁸ Interpretatsiya – lotincha interpretatsion – tushuntirmoq) talqin, adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.



qanday badiiy obraz xronotopik xarakter kasb etadi”,[¹ Баҳодир Карим. Рухият алифбоси.: – Тошкент, 2018. – Б.79.] – deya ta’kidlaydi. Badiiy xronotop qat’iy tarzda janriy mohiyatga ega. Aytish mumkin-ki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati zamonda va badiiy makonda ko’rinadi. Xronotop shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki, badiiy obraz doimo xronotop negizida ma’no kasb etadi. “Adabiyot uchun asosiy, bosh material bu – insonning o’zidir. U hattoki adabiyotning boshdan-oyoq, butun mohiyatini tashkil etadi... Adabiyot inson qalbini shu qadar yuqori qo’ygan holda, uning a’zoyi badaniga bir qadar bepisandlik bilan qaraydi. Mana necha asrdirki, unda insonning homo poetikus – poetik odam deb atash mumkin bo’lgan o’ziga xos bir turi yashab, rivojlanib keladi... Adabiyotning ayrim davrlari odam tasviri bilan shu qadar to’lib toshganki, go’yo undan boshqa hech narsa mavjud bo’lmaganday tuyuladi. O’sha paytlarda yaratilgan adabiy obrazlar zamonda yosh va fasllarsiz, makonda esa dov-daraxtlarsiz, bulut va yovoyi hayvonlarsiz harakatlangan.”[Парандовский Я. Сўз кимёси. Ташкент: “Yangi asr”, 2022. – Б. 247-248.] Xronotop badiiy olamdagi shaxs qiyofasini ham belgilaydi. Bu tasvir mohiyatan xronotopikdir, chunki vaqt va makon insonning koinot bilan umumlashma munosabatlari xususiyatini belgilaydi”.[А.А Тараканова. Замонавий адабиётда хронотоп тушунчаси.М.: 2011. – Б. 9.] “Allohning olamni bir kishida jam qilishi inkor etilmaydi, bundan ajablanishga o’rin yo’q”.[Беруний А.Р Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал боқия). Ташкент: “O’zbekiston”, – 2020. – Б. 37] tarzidagi qarashlar uchraydi. Ushbu qarashlar izohida o’rta asr musulmon faylasuflarining ta’limotlariga binoan, odam kichik olam (mikrokosmos) hisoblanadi, ya’ni u dunyodagi mavjud narsalarning barchasini o’zida mujassamlashtirishi asoslangan. Inson xronotopi haqidagi Baxtin qarashlari Sharqda ming yil oldinroq mavjudligini isbotlaydi. Darhaqiqat, odamning olam haqidagi tasavvurlari, qarashlari, tushunchalari alohida bir olamdir. Buni ijodkorlar yaratgan asarlarda ko’rishimiz mumkin.

Isajon Sulton romanlarida qahramonlarning ismlari juda kam uchraydi. Bizningcha, bu ijodkorning uslubiy o’ziga xosligidir, chunki adib asarlarining qahramonlari ayni bir nomli kishilargagina emas, balki butun insoniyatga dahl qiladi. Unda til, din, hudud chegara bilmaydi, ayniqsa, darbadar etikdo’z dunyoning qaysi chetida bo’lmasin suhbatda davom etadi, ijodkor qahramoniga na zamon, na makon dahl qilmaydi. Chunki qahramon shunchaki inson emas, bosh harflar bilan yozilgan INSONdir. Asardagi hayot sinovlariga qarash ijodkor – ziyolining nazari bo’lganligi sababli “Boqiy darbadar”da maqsadiga erishgan qahramonga –



professorga Ziyo nomi tanlangan. Chunki u ijodkordek diniy va dunyoviy qarashlari teng shakllangan qahramon, adibning qaysidir ichki “meni”dir. Shaxs yoki odam emas, balki insoniy sifatlarga ega bo‘lgan ijodkor ong oqimi mahsulidir.

M.M.Baxtin ishlarida tilga olingan hodisa “ong oqimi” (potok soznaniya) 90-yillar adabiyotshunosligida keng qo‘llanila boshlandi va ayni shu holat bilan birga adabiyotshunoslikda xotira vaqti xususidagi qarashlar ham yuzaga keldi. “Bunda qahramon xotirasi uning shu kundagi turmushi bilan bog‘liq holda tasvirlangani uchun xotira vaqti syujet vaqtdan tashqari ko‘rilmaydi, balki uning hofizasida keltirilgan voqealar bayoni syujet elementlari sifatida tasvirda saqlangani uchun ham bunday komponent syujet vaqtining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.”[**Бочаров** прославился своими исследованиями по русской литературе XIX века, в первую очередь книгами «Роман Л.Н. Толстого „Война и мир“» (1963).<https://meduza.io/news/2017/03/06/umer-literaturoved-sergey-bocharov>] Aynan xotira eslash usuli yondosh xronotoplarning yuzaga kelishini ta‘minlagan. “Boqiy darbadar” va “Ozod” romanlarida “adashish” motivi va ikkilanish la‘natdan xalos bo‘lish uchun tavba qilish usuli bilan birga roman maydonida boshqa xronotoplarning shakllanishiga imkon yaratib bergan.

Yozuvchi romanlarida qahramonlar harakatlanuvchi makon dahlsizligi Isajon Sulton “men”idan Ozodga, darbadarga ko‘chib o‘tadi. I.Yoqubov shunday yozadi: “Ozod” romani inson umrining qadri haqida bitilgan. Chunki adib azaldan sharaflangan insonni dunyoviy havaslar to‘riga o‘ralib qolmaslikka undaydi. Asarda baniy odam naslining tarixi va ertasi taftish etilib, bugunning odami, ya‘ni zamondoshimiz g‘aflat va johiliyatdan uyg‘onishga chorlanadi. Romandan muboraklik inoyat qilingan zot nafs ilinjidagi turfa evrilishlardan emas, balki iymon salomatligidan najot topajak, degan xulosa chiqariladi. Yozuvchi tasavvuridagi iymon shunchaki mavhum tushuncha emas. Iymon, tuproq, suv va olov birligidan yuzaga keluvchi yaxlitlik bo‘lib, niyati so‘z va amal uning tayanchlaridir”. Haqiqatdan ham, munaqqidning mulohazalarida jon bor. Ozod vujudida ismsiz dard mavjud. Uning nima ekanligini bilsa-da, tayinli javob topish maqsadida fikrlaydi. Ozod – fikrlovchi, mushohada yurituvchi, holat va hodisalarning sabab hamda oqibatlarini fahmlovchi obraz. Yaratilishning mohiyatini har bir tafsilotlar negizida tahlil qilib, fikrlarini jamlay boradi. Inson tirikligi – iymon bo‘lsa, uni ko‘z-qorachig‘iday saqlash buyuk qahramonlik, deb biladi yozuvchi. Shuningdek, taqdir buyurgan kechmishlarga shukronalik hissi bilan yashash oliy baxt ekanligiga ishora qiladi:

“– Bular oddiy kishilar, ya‘ni avom, – dedi shamol. – Avom ko‘rgan narsalarni olim boshqa nigoh bilan ko‘radi. Avom toshni ko‘rsa, olim toshning ichidagi qudratni ilg‘aydi. – Qiziq... – dedi Ozod. – Hamma yovdan so‘z aytmoqda... Kim u yov? –



Seni voqealar orasidan ana shunday olib o'taman, bolam, – dedi shamol, shunda sasi yana otasining ovozigga o'xshab qoldi. – Har voqeani ko'rganingda bir daraja yuksalasan. Oldinga razm sol: toshli so'qmoqdan bir ko'r kishi ketib bormoqda, yovning kimligini senga o'sha zot anglata oladi. Hozircha esa... Uchyong'oq deganimda, sen faqat bitta yong'oqni ko'rganingni aytding. Vaholanki, u yerda bir mag'izdan uchta daraxt unib chiqqan edi. – Ha, to'g'ri aytasan, – dedi Ozod. – Yana kimdir bu yerda qizg'aldoqlarni ko'rgan edi, xabarini berib ulgurdi, – dedi shamol. – Boshqa biron esa qizg'aldoqlar o'rnida lolazorni ko'rganini aytdi. Sen ham shu makonga qadam qo'yding, aytchi, nimalarni ko'rmoqdasan? Men rango-rang ochilgan chechaklarni ko'ryapman, – dedi Ozod, yo'ning davomiga qarab. Bo'rsillagan tuproqdan turfa gulli dala chechaklari bosh ko'targan, qirlarga dovur enlab ketgan edi”.

Keltirilgan misolda hali Ozodning hol tilini tushunmasligini, narsa va hodisalarning qanday sodir bo'layotganini anglash darajasida chuqur mushohada yuritmagan balog'at davri edi. Yozuvchi dialogik munosabatga makonni va zamonni singdirib yuboradi. Bir mahallar bu yerlarda urushlar bo'lgani-yu, qonlarning to'kilishi, ularning o'rnida chechaklar unib chiqib, ma'no kasb etishi g'oyat ta'sirli chizib beriladi. Ozod aslida Dilorom uchun bir tutam lola gulini olib kelishga otlangan bo'lsa-da, hayotning o'zi ulkan sinovlarni keltirib chiqarishi, vaqt oliy hakamligiga ishonch hosil qila boradi. Mashaqqatlar-u mehnatlar evaziga qo'lga kiritilgan har qanday boylik zamirida rohat-farog'at borligini, iymonni mustahkamlashda ma'rifiy bosqichlarning o'rne nechog'li kattaligini asta-sekinlik bilan tushuna boradi. Uning uchun xatar ham oddiy bir kurash bo'lib ko'rinadi. Keltirilgan parchadagi reminitsensiya¹⁹ Muhammad Yusufning “Lolaqizg'aldoq” she'ri, Ulug'bek Hamdamning “Lola” hikoyasi, Murod Muhammad Do'stning “Lolazor” romaniga nisbatdir. “Yana kimdir bu yerda qizg'aldoqlarni ko'rgan edi” jumlasini M.Yusufga, Boshqa biron esa qizg'aldoqlar o'rnida lolazorni ko'rganini aytdi, jumlasini esa U.Hamdani va M.M.Do'st ijodiga nisbatlangan.

“Ma'naviy-ruhiy yuksalgan roman qahramoni Ozod yaratilmish olam to'lig'icha inson uchun ekanini anglab, borliqdagi barcha narsalar, ayniqsa, ahli ma'ni va zamin tuproqlari-yu giyohlariga muboraklik maqomini beradi. Uni ma'nan ulg'aytirgan shamolni ham o'z amriga bo'ysundiradi. Shamol Ozodni ko'klarga ko'taribgina qolmay, ortda qolib ketgan qishloq uzra yoyilib esa boshlaydi. Biroq avomning nazarida, u hamon o'sha jo'n shamolligicha qolaveradi. Ozodning lolani uzib (Ulug'bek Hamdamning “Lola” hikoyasini eslang) o'z mahubasiga taqdim

¹⁹ Reminisensiya (lotincha reminisensia – xotirlash, eslash) – adabiy hodisalar bilan diologik munosabatda bo'lish natijasi sifatida yuzaga keluvchi hodisa, adabiy asardagi ilgari mavjud bo'lgan asarlarni yodga soluvchi nuqtalar.



qilish muddaosi yo‘lidan og‘ishmay lolazorga (Murod Muhammad Do‘st. “Lolazor” romani) yetgan kezdagi holi butkul o‘zgacha. Endi qahramon yo‘l boshidagi bo‘z bola emas, ma‘nan ulg‘aygan ediki, shu boisdan lolaning g‘am-anduh va iztirob ichida ekanini ko‘radi (M.Yusuf. “Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”). Uning butun g‘amlari kimsasizlik va yolg‘izlik, larzon-larzon tebratuvchi shamolga intiqlik va o‘z diydoriga tashna Diloromning tussiz hayotiga ma‘ni berishdek orzusiga yeta olmayotganidan tug‘iladi. Iztiroblari boisi – hijron. Tog‘lar ortida egasini intizor kutayotgan lolagun malak diydorining sog‘inchi. Romanda lola orqali Dilorom tamsil etilsa, Dilorom o‘z tushlarida lolaga aylanganini ko‘radi. Isajon Sulton “Ozod”iga jalb etilgan ijodkorlar biografiyasi va ijodidagi hodisalarni ongli ravishda tafakkurida qayta idrok etadi.

Roman poetikasida ikkinchi aksda tasvirlangan voqelik Ozodni qattiq sinovdan o‘tkazadi. Shamolning yetovida fojialardan ham omon qoladi. Aslida shamol bir sabab ekanligi, Ozodda ulg‘aygan ulkan muhabbatni o‘quvchi anglab yetadi. Yozuvchi keskin tragik sahnalarda – parda orqasida elas-elas ko‘rinish berib turadigan vahshiy dev obrazi haqida so‘z yuritmaydi. Shaytonga taslim bo‘lish hayotda o‘z qadrini yo‘qotishga yo‘l ochib berish, deb urg‘ulaydi. Adib ayni shu jihatga qattiq e‘tibor qaratadi. Ya‘ni Ozodning hayotidagi son-sanoqsiz adashishlardan xulosa chiqarishga undaydi. Bir qarashda, didaktik masalalarning ramzlar negizida qayta idrok etilishi asardagi kuchli romantik bo‘yoqdorlikni keltirib chiqaradi. Qalbdagi fanoni yengish va Allohni tanish maslagi har qanday odamni tozarishga chorlaydi. Gunohlardan forig‘ bo‘lgan insongina so‘z va niyat birlashuvi tufayli go‘zal maqsadga erishadi. Yozuvchi voqelikni tasvir etishda so‘z va niyat uyg‘unligini tabiat hodisalari bilan bog‘lab tadqiq qiladi.

Romanning “Mulki fano” qismida uch aksli g‘oyaviy tadrijdan keyin ijodda qarashlari va fikrlari yuqori sanalgan Mashrab va Navoiyga murojat qiladi. Mulki fanoda uchratgan kishisi kim ekanligini so‘ragan Ozodga “Nafaqat bu makonlardan, balki dunyoning ustidan ham hakkasifat hakkalab o‘tib ketgan zot”[Исажон Султон. Кўрсатилган манба, Б – 296], – deya shamol javob beradi. Undan-da baland maqomda Navoiy ekanligini aytib uning tabiridagi fano vodiysi tasvirini keltiradi. “Bu yer shunday bir joy ediki, aql uning kengligini idrok qilishga ojizlik qilardi. Butun osmon hatto u yerdagi oddiy bir xasdan ham kichikroq edi. Bu yerda extiyojisizlik bulutidan jala yog‘ardi. Bu yerda yetti ko‘k bir hovuch tuproqqacha jannatda o‘sadigan sidra va to‘bi kabi daraxtlar esa xas kabi qadrsiz edi.” Muallif esa Mulki fanoga erishish uchun nasfni yengishi, hayot sinovlaridan beqadr bo‘lmasdan o‘tishi, hayot hikmatlariga amal qilishi kabi hayotiy xususiyatlar insonga muboraklik maqomini taqdim etishini Ozodning qarashlariga singdiradi. Shuningdek, muallif



“men”idagi ustozlar, o‘zidan avvalgi ijodkorlar tutgan yo‘lga ergashishini maqsadi esa yuqoridagilar kabi Mulki fano uchun munosib bo‘lish, munosiblikka esa tajribalilar tajribasi muallifga u orqali Ozodga dasturamal vazifasini o‘taydi. Reminisensiya asosida ijodkor qarashlarining yetilishi kuzatiladi. Demak, ijodkor asarlarida intertekstuallik va reminisensiya muhim badiiy estetik vazifa bajara olgan. Shunday ekan, bu ikki adabiy hodisadan unumli va maqsadli foydalanishni ijodkorning uslubiy o‘ziga xosligi sifatida talqin etishimiz mumkin.


REFERENCES:

1. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): фил.фан.доктор. дисс. – Самарқанд, 2020, – Б.148-149.
2. Навоий А. Хамса. Ҳайрат ул абарор.Тошкент.: “Наврўз”, 2018. – Б. 23.
3. Жўрақулов У.Ҳ. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси.Т.: 2017. – Б. 120-б.
4. Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси.: – Тошкент, 2018. – Б.79.
5. Парандовский Я. Сўз кимёси. Toshkent: “Yangi asr”, 2022. – Б. 247-248.
6. А.А Тараканова. Замонавий адабиётда хронотоп тушунчаси.М.: 2011.Б.9.
7. Беруний А.Р Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал боқия). Toshkent:“O‘zbekiston”, – 2020. – Б. 37.
8. Бочаров прославился своими исследованиями по русской литературе XIX века, в первую очередь книгами «Роман Л.Н. Толстого „Война и мир“»(1963).<https://meduza.io/news/2017/03/06/umer-literaturoved-sergey-bocharov>
9. Исажон Султон насри бадиияти, Кўп пўртаналардан бахс этувчи асар. Ёқубов.И. Т.:2017. 122-б.
10. Нилуфар Тошева Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). Автореферат Тошкент 2020. 21-б.
11. Генетик. Исажон Султон. Ozod – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.217-б



12. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Монография. – Тошкент: “Nurafshon business”, 2021. Б – 48.
13. Abdulxamidova X. Isajon Sultonning “Ozod” romanida aks xronotopi.// Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. Журнал. 2021, № 1. – Б. 9-13.
14. Abdulxamidova X. Romanchilikda yo’l xronotopining badiiy-estetik funksiyasi.// ФДУ. Илмий хабарлар. Журнал. 2022, № 6. Б 250-256.
15. Isajon Sulton romanlarida yo’l xronotopi.// ФДУ. Илмий хабарлар. Журнал. 2022, махус сон. Б. 902-906.
16. Isajon Sulton romanlarida badiiy-psixologik xronotop. // **O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023**, № 1. Б. – 234-237.
17. Poetic Characteristics of Chronotopy of Photos in Isajon Sultan's Novel "Free". // International Journal on Integrated Education. Indoneziya 2021, B.34-37.
18. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida xronotop Zamonaviy filolgiya va pedagogikaning rivojlanish omillari. 2022 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6582616>. B. – 207-210.
19. Isajon Sultoning “Boqiy darbadar” romanida syujet va kompozitsiya. Zamonaviy filolgiya va pedagogikaning rivojlanish omillari.2022.<https://doi.org/10.5281/zenodo.6525805>. B. – 236-240.
20. Ijodkor uslubida badiiy-psixologik xronotop.// “Zahiriddin Muhammad Boburing jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o‘mi va ahamiyati” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Ilmiy nashr. - Farg‘ona: FarDU, 2023. B. – 558-564.
21. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida vaqt va makon badiiy talqinidagi o‘ziga xoslik.// “Ғафур Ғулумнинг поэтик маҳорати” мавзусида илмий-амалий онлайн анжумани. SamDU, 2023. B. – 286-291.
22. Abdulxamidova X. “Donishmand Sizif” romanida an’anaviy obrazning noan’anaviy talqini.// Zamonaviy filolgiya va pedagogikaning rivojlanish omillari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Farg‘ona, 2022. B. – 110-113.
23. Abdulxamidova X. Zamonaviy romanda xronotop (Isajon Sultonning “Ozod” romani asosida)// international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences. 2022. B. – 189-199.
24. Abdulxamidova X. **Ruhiyolam ziddiyatlarining badiiy tasviri.** // “Results of National Scientific Research”. 2022. B. – 214-218.
25. Abdulxamidova, X., & Sobirova, M. S. Q. (2022). ISAJON SULTONNING “OT YOLI, SOMON PARCHASI VA TOSHBAQA BOLASI”





HIKOYASIDA RIVOYAT VA RAMZIYLIK. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 45-49.

26. Abdulhamidova, H. A. Q., & Saminjonova, M. O. Q. (2022). MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDA MILLIY DETALLARNING IFODALANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 434-440.

27. Valiyeva, N. (2023). THE CLASSIFICATION OF CHEMICAL TERMINOLOGY IN MODERN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 35(35).

28. Abdurashidovich, Q. A. Abdulxamidova Xikmatoy Axrorjon qizi, A. Qosimov, R. Umurzakov, & Махмиджонов Шохрухбек.(2022, May 1). THE VIRTUES OF A" HOME WITH A MAN.

29. Mukhammadjonova, G. (2022). THE ARTIST'S IMAGE-LANDSCAPE-LITERARY SYNTHESIS. *Models and methods in modern science*, 1(1), 46-48.

30. Guzalkhan, M. (2021). CREATIVE PERSON AND THE HARD WORK OF CREATIVITY. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 4, No. 1, pp. 239-240).

